

O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI MAVZUSINI O‘QITISHDA MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH(10-SINFLAR UCHUN)

Isayev Oybek Ahmed o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti tarix kafedrasi o‘qituvchisi dots

Eshbo‘riyev Sardorbek Sharofiddin o‘g‘li

4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20609777>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 10-sinf O‘zbekiston tarixi fanida “O‘zbekiston SSRning tashkil topishi” mavzusini o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda mavzuning murakkab va bahsli jihatlarini ochib berishda muammoli savollar, vaziyatli topshiriqlar va tahliliy faoliyat turlarining o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tarixiy tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Shuningdek, dars jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llash orqali o‘quvchilarning tarixiy voqealarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish va ularning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga erishish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, maqola umumta’lim maktablari tarix fani o‘qituvchilari uchun metodik tavsiya sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: muammoli o‘qitish, O‘zbekiston SSR, milliy-hududiy chegaralash, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash.

KIRISH. Vatanimiz tarixini tadqiq etish, o‘rganishda uni to‘g‘ri davrlashtirishning ahamiyati tarixchi o‘qituvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Sovet hukumati hukmronligi yillarida SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan, Vatanimiz tarixi ham sinfiy nuqtayi nazardan kurash, inqilobiy harakatlarga asoslangan marksistik formatsion g‘oyalarga bo‘ysundirilgan davr bo‘lganligini bilish zarur.

Shundan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, XX asrning 20-30 yillarida «jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta kommunistik g‘oyalarga olib boradi» degan g‘oyani ilgari surish va oqlashdan iborat bo‘ldi desak hato qilmagan bo‘lamiz

Bu g‘oyaning qanchalik to‘g‘riligi XX asrda SSSR davlatining ko‘pgina xalqlar taqdirida sinab ko‘rildi, natijada salbiy oqibatlariga olib keldi. Hammani tenglashtirish g‘oyasi ИШЛАБ ЧИҚИЛСА-да amalda kambag‘allar, yo‘qsillar uchun erkin va farovon turmush yaratolmadi. Mulkdorlar, badavlat tabaqalarni kambag‘allar, yo‘qsillar darajasiga tushirdi. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki bugungi kunda O‘zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o‘tmishi, uning boy tarixi tarixi haqida очик-ойдин кўрсатиб, белгилаб ва bilim berishda o‘z chog‘ida chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvarлик ma’naviy jihatdan komil inson etib shakllantirishga xizmat qiladi.

Vatanimiz tarixini o‘rganishda har bir fuqaroniHT, jumladan, bugungi yoshlarimizniHT oldida turgan birinchi vazifa hisoblanadi. Unda ular boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o‘rgatadi. Kishilar qalbida ezgulik

tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, ekanligini aytish mumkin kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi.¹

Shuningdek, O'zbekiston SSRning tashkil topishi УНИИГ ma'lum davrda boshqaruv tizimining isloh qilinishida Markaziy Osiyo hududida qadim-qadimdan tili, dini, tarixi, madaniyati, an'analari bir-biriga juda yaqin qardosh va qondosh xalqlar yashab kelgan. Bu yerda istiqomat qilgan o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarning xo'jalik hayoti, turmush tarzi, udumlari ham bir-biriga o'xshash bo'lib, ular ham shu muqaddas ona-zaminni o'zlarining asl Vatanlari deb bilganlar.

Biroq Sovet hokimiyati arboblari tarixan bir yagona hududda yashab kelgan birodar xalqlarni bir-biridan ajratib tashlash, ularning birlashib, yagona davlat tuzishlariga izm bermaslik uchun barcha choralarni ishga soldi. Turkistonni milliy o'ziga xoslik, til birligi asosida bo'lib tashlash g'oyasi ilgari surildi. Markaz buyrug'ini bajarishga da'vat etilgan Turkiston ishlari bo'yicha Turkkomissiya zimmasiga o'lkada, milliy-davlat chegaralanishini o'tkazish va shu asosda, bu hududda, bir qator sovet milliy va muxtor respublikalarini tashkil qilish vazifasi yuklangan edi.

1924-yilda Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O'zbekiston SSR Sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar Muvaqqat Inqilobiy Qo'mita ixtiyoriga berildi. Buxoro Respublikasi Hukumati Raisi, taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev O'zbekiston SSR Inqilobiy Qo'mitasi Raisi etib tasdiqlandi. O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

Turkiston ASSRdan 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq qo'shildi..

Buxoro Respublikasining 9 ta tumani; Xorazm Respublikasining 23 ta tumani.

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312 394 kv · km ni, aholisi 4 mln 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926-yil ma'lumotlari bo'yicha milliy tarkibiga ko'ra aholining 74,2 foizini o'zbeklar, qolganlarini esa boshqa xalqlar vakillari tashkil etar edi.

O'zbekiston SSR Sovetlari MIQ raisi lavozimiga farg'onalik dehqon,

«Qo'shchi» uyushmasi rahbari Yo'ldosh Oxunboboyev saylandi. O'zbekiston SSR hukumati – Xalq Komissarlari Kengashi Raisi lavozimiga Fayzulla Xo'jayev tasdiqlandi. Samarqand shahri O'zbekiston SSRning poytaxti etib belgilandi.² 1930-yilda poytaxt Toshkentga ko'chirilgan.

1925-yil may oyida O'zbekiston SSR Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi (SSSR) tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O'zbekiston SSR hududida ishlaydigan bo'ldi. 1927-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSRning birinchi va 1937-yildagi ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiya- sining ko'chirma nusxasi edi. Chunki O'zbekiston qog'ozda «suveren» respublika bo'lib, amalda Markazga tobe bir o'lka edi, xolos. U o'z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani mustaqil hal eta olmasdi. Binobarin, Respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham Ittifoq hukumati tasarrufida edi. 1929-yilda Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston SSR ga aylantirildi hamda SSSR tarkibiga olindi. Shuningdek, 1936-yil-ga kelib, avval Qozog'iston ASSR, keyin RSFSR (1932–1936-yil) tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston muxtor viloyati Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirilib.

O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, qog'ozda suveren respublika sifatida shakllantirilgan hukmron sovet imperiyasi tarkibiga kirgan.

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar to'plami. 6-jild.– T.: «O'zbekiston». 1998. 371-bet.

² .Q.Usmonov M.Sodiqov S.Burxonova O'zbekiston tarixi Toshkent 2016.260-263 betlar

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy taqqoslash va rekonstruksiya metodi O‘zbekiston SSR tashkil topishi hamda markaz tomonidan olib borilgan siyosat hamda o‘sha davrdagi boshqaruv sohalarining o‘zgarishi bilan taqqoslash orqali O‘zbekiston SSR tashkil topishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Hujjatli tahlil metodi – O‘zbekiston SSR tashkil topishiga oid davlat arxivlari, rasmiy hujjatlar, nutqlar va matbuot materiallarini o‘rganish orqali O‘zbekiston SSR tashkil topishi jarayonini yoritish;

Siyosiy tahlil metodi – O‘zbekiston SSR tashkil topishi hamda uning siyosiy jarayonga ta’siri .

Muammoli vaziyat yaratish metodi. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi jarayonini tushuntirishda 1920-yillar O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiruvchi tarixiy fotosuratlar muammoli vaziyat yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi³.

Pedagogik metodlar – mazkur tarixiy voqeani ta’lim jarayonida qanday yoritish mumkinligi bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

Kichik guruhlarda ishlash metodi (1920-yillar o‘zbek jamiyati)- O‘quvchilar rasmlarda aks etgan ijtimoiy holatni tahlil qilib, O‘zbekiston SSRning tashkil topishi xalq hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatganini muhokama qiladilar.

Rasmlar bilan ishlash asosida xulosa chiqarish metodi-1925-yillarda O‘zbekiston hududida siyosiy va ijtimoiy jarayonlar

Bu metod orqali o‘quvchilarda:

- tarixiy tasavvur;
- milliy ong;
- tanqidiy fikrlash shakllanadi⁴

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy manbalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ilmiy adabiyotlar va darsliklar – O‘zbekiston SSR tashkil topishi (O‘zbekisto tarixi darsliklari)bo‘yicha nashr etilgan akademik tadqiqotlar va darsliklar;

O‘quv-uslubiy qo‘llanmalar – O‘zbekiston tarixini o‘qitishda O‘zbekiston SSR tashkil topishini yoritish usullariga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy materiallar;

Zamonaviy ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari – mustaqil o‘zbekistonlik va xalqaro tadqiqotchilarning O‘zbekiston SSR tashkil topishi mavzusidagi ishlari.

Ushbu metodik yondashuvlar va manbalar asosida tadqiqot olib borilib, O‘zbekiston SSR tashkil topishi tarixiy jarayonlardagi o‘rni, uning siyosiy va ijtimoiy ahamiyati hamda hozirgi zamon tarix ta’limida qanday o‘qitilishi bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR (RESULTS). O‘zbekiston SSR (Sovet Sotsialistik Respublikasi)ning **tashkil topishi (1924–1925)** bir qancha muhim **natijalarga** olib keldi:

1. **Milliy-hududiy chegaralash amalga oshirildi** 1924-yilda O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralash o‘tkazilib, O‘zbekiston SSR tashkil topdi. Bu bilan o‘zbek xalqi nomi bilan atalgan respublika paydo bo‘ldi.
2. **O‘zbekiston SSSR tarkibiga kirdi** O‘zbekiston rasmiy ravishda respublika bo‘lsa-da, **mustaqil davlat emas**, balki SSSRga to‘liq bo‘ysungan edi. Asosiy siyosiy qarorlar Moskvada qabul qilinar edi.
3. **Davlat boshqaruvi va chegaralari shakllandi** Respublikaning hududi, poytaxti (avval Samarqand, 1930-yildan Toshkent) va boshqaruv tizimi belgilandi.

³ Maxmutov M.I. *Muammoli o‘qitish nazariyasi*. — Moskva 1975. 166-bet

⁴ Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar*. — Toshkent, 2016 144-148 betlar

4. **Iqtisodiyot SSSR manfaatlariga bo'ysundirildi** O'zbekiston asosan **xomashyo bazasi** (paxta yetishtirish)ga aylantirildi. Bu biryoqlama iqtisodiy rivojlanishga olib keldi.
5. **Madaniyat va ta'lim rivojlandi, lekin mafkuraviy nazorat kuchli bo'ldi** Savodxonlik oshdi, maktablar ochildi, ammo ta'lim va madaniyat **kommunistik mafkura** asosida olib borildi.
6. **Milliy elita qatag'on qilindi** 1930-yillarda ko'plab o'zbek ziyolilari va yetakchilari “xalq dushmani” sifatida qatag'on qilindi.

MUHOKAMA (DISCUSSION). 1924-yilda Sovet hokimiyati tomonidan O'rta Osiyoda **milliy-hududiy chegaralash** o'tkazildi. Natijada O'zbekiston SSR tashkil topdi. Bu voqea o'zbek xalqi tarixida muhim burilish bo'lsa-da, uning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

jobiy jihatlari:

O'zbek nomi bilan atalgan respublika paydo bo'ldi

Ilk bor o'zbek xalqi nomidan davlat tuzilmasi yaratildi

Hududiy chegaralar belgilandi

O'zbekistonning siyosiy va ma'muriy hududi shakllandi.

Davlat boshqaruvi tizimi yaratildi

Hukumat, idoralar, qonunchilik tizimi joriy qilindi.

Savodxonlik va ta'lim rivojlandi

Maktablar ochildi, savodsizlikni tugatish harakatlari olib borildi.

Salbiy jihatlari:

Haqiqiy mustaqillik yo'q edi

O'zbekiston SSR SSSRga to'liq qaram bo'lib, asosiy qarorlar Moskvada qabul qilindi.

Iqtisodiyot bir yoqlama rivojlantirildi

Respublika asosan paxta yetishtiruvchi hududga aylantirildi.

Milliy manfaatlar e'tibordan chetda qoldi

Sovet mafkurasi ustuvor bo'lib, milliy qadriyatlar cheklab qo'yildi.

Qatag'onlar kuchaydi

1930-yillarda ko'plab o'zbek ziyolilari va yetakchilari jazolandi.

XULOSA. Vatanimiz tarixini puxta bilish navqiron – avlodimiz- ning Sizdek namoyandalari uchun bamisoli suv bilan havodek zarur. Negaki, tarixiy xotira Sizni shu muborak Vatanni farzand yanglig' sevish, uning har bir siqim tuprog'ini ko'zga to'tiyot etish, ona yurt xizmatiga kamarbasta bo'lish, uning sarhadlarini har qanday yovuz kuchlardan, g'animlardan himoyalash, kerak bo'lsa, aziz jonni ham fido qilishga chorlaydi.

Bunda ulug' ajdodlarimizning ibрати, jasorati Sizga ruhiy madadkor bo'ladi. Bizu siz Vatanimiz tarixini chuqur, asosli o'rganish orqaligina milliy istiqloldek bebaho ne'matning qadrini yanada teran tushuna- miz. Mustaqillik bizning qo'limizga osonlik bilan kelmaganligi- ga, unga erishish yo'li og'ir, mashaqqatli kechganligiga jonli guvoh bo'lamiz. Binobarin, istiqlol ne'matini avaylab asrash, uni non kabi, jon kabi ulug'lash, bugina emas, uni mustahkamlash va kuchaytirish borasida doimo sa'y-harakatda bo'lish har birimiznin, fuqarolik burchimiz bo'lmog'i ayni muddaodir. Biz , minnatdor o'g'il-qizlar, buni hamisha yodimizda tutmog'imiz lozim. Shuningdek, mazkur tadqiqot O'zbekiston SSR tashkil topishini 10-sinflar uchun mavzuni ta'lim tizimida yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Uni maktab va oliy ta'lim darsliklarida keng yoritish, tarixiy hujjatlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish va yosh avlodga milliy o'zlikni anglashda tarixiy xotirani singdirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar to'plami. 6-jild.– T.: «O'zbekiston». 1998.
2. Q.Usmonov M.Sodiqov S.Burxonova O'zbekiston tarixi Toshkent 2016.
3. Maxmutov M.I. *Muammoli o'qitish nazariyasi*. — Moskva 1975.4.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar*. — Toshkent, 2016